



### XORAZM “GO‘RO‘G‘LI” DOSTONLARIDA “BOSH” KOMPONENTLI SOMATIK FRAZEOLOGIZMLARNING LINGVOKULTUROLOGIK VA KONTEKSTUAL TAHLILI

Gulumov Maqsud Uktam o‘g‘li,  
O‘zbek va xorijiy filologiya kafedrası o‘qituvchisi,  
Urganch innovatsion universiteti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20603976>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Xorazm “Go‘ro‘g‘li” turkum dostonlari matnidagi “bosh” komponentli somatik frazeologizmlar lingvokulturologik va kontekstual-semantik jihatdan tadqiq etilgan. Frazeologizmlarning lug‘aviy ma‘nosi bilan epik matndagi pragmatik mazmuni o‘rtasidagi tafovutlar hamda ularning semantik transformatsiyalari ochib berilgan. Tadqiqot natijasida ushbu frazeologizmlarning qahramonlar ruhiyatini yoritish, syujet dinamikasini kuchaytirish hamda milliy-madaniy dunyoqarashni aks ettirishdagi lingvopoetik va lingvokulturologik ahamiyati aniqlangan.

**Kalit so‘zlar:** frazeologiya, somatik kod, somatik frazeologik birliklar, “Go‘ro‘g‘li” dostoni, kontekstual semantika, lingvokulturologiya, pragmatika.

**Аннотация.** В данной статье **соматические фразеологизмы с компонентом «голова», функционирующие в текстах Хорезмского цикла эпоса «Гороглы», исследуются в лингвокультурологическом и контекстуально-семантическом аспектах. Выявлены различия между словарным значением фразеологических единиц и их прагматическим содержанием в эпическом тексте, а также раскрыты особенности их семантической трансформации. В результате исследования определена лингвопоэтическая и лингвокультурологическая значимость данных фразеологизмов в репрезентации внутреннего мира персонажей, усилении динамики сюжета и отражении национально-культурного мировоззрения.**

**Ключевые слова:** фразеология, соматический код, соматические фразеологические единицы, эпос «Гороглы», контекстуальная семантика, лингвокультурология, прагматика.

**Annotation.** This article examines **somatic phraseological units containing the component “head” in the texts of the Khorezm Gorogly epic cycle from linguocultural and contextual-semantic perspectives. The study reveals the differences between the dictionary meanings of these phraseological units and their pragmatic meanings in the epic discourse, as well as clarifies the features of their semantic transformations. The findings demonstrate the linguopoetic and linguocultural significance of these phraseological units in representing characters’ inner states, enhancing narrative dynamics, and reflecting the national-cultural worldview.**

**Keywords:** phraseology, somatic code, somatic phraseological units, Gorogly epic, contextual semantics, linguoculturology, pragmatics.

**Kirish.** O‘zbek tili frazeologiyasi xalqning milliy tafakkuri, tarixiy xotirasi va ijodiy-estetik salohiyatini aks ettiruvchi murakkab lisoniy hodisadir. Tilning frazeologik boyligi ushbu birliklarning nafaqat miqdoriy tarkibi, balki keng semantik ko‘lami hamda boy uslubiy imkoniyatlari bilan ham belgilanadi.

Frazeologizmlar nutqning emotsional-ekspressiv bo‘yoqdorligini kuchaytiruvchi va badiiy matnda obrazlilikni ta‘minlovchi muhim lisoniy vosita hisoblanadi [8: 45]. Akademik V.N.Teliya ta‘kidlaganidek, frazeologik qatlam tilning o‘ziga xos “madaniy



xotirasi” bo‘lib, xalqning dunyoqarashi va etnomadaniy tajribasini avloddan avlodga uzatuvchi mexanizm vazifasini bajaradi [10: 222].

Xalq og‘zaki ijodi namunalari, jumladan, dostonlar tilidagi frazeologik birliklar milliy mentalitet va dunyoqarashni aks ettiruvchi ramziy-lisoniy kodlar sifatida namoyon bo‘ladi [11: 12]. Ayniqsa, inson tanasi a‘zolari bilan bog‘liq somatik frazeologizmlar qahramonlarning ruhiy holati va ichki kechinmalarini ifodalashda muhim semantik-pragmatik vazifa bajaradi. Shu jihatdan, Xorazm “Go‘ro‘g‘li” dostonlari turkumida somatik kodli frazeologizmlarning qo‘llanilish xususiyatlarini tadqiq etish frazeologiya, lingvokulturologiya hamda matn tilshunosligi uchun dolzarb ilmiy ahamiyat kasb etadi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Xalq dostonlari milliy tilning boy leksik-semantik va uslubiy imkoniyatlarini mujassamlashtirgan muhim manba hisoblanadi. Y.D.Pinxasovning ta’kidlashicha, frazeologiya dastlab adabiyotshunoslik doirasida, xususan, badiiy asarlarni tarjima qilish jarayonida barqaror birikmalarni so‘zma-so‘z o‘girishning imkonsizligi oqibatida alohida lingvistik yo‘nalish sifatida shakllangan. Jahon filologiyasida “frazeologiya” atamasi ilk bor Neandr tomonidan aynan badiiy matnlar tarjimasi kontekstida qo‘llanilgan [7].

O‘zbek tilshunosligida frazeologik birliklarni tizimli tadqiq etish bo‘yicha boy ilmiy maktab yaratilgan. Mazkur yo‘nalishning nazariy asoslari Sh.Rahmatullayev (1966), B.Yo‘ldoshev (1993), A.Mamatov (2000) kabi olimlarning doktorlik dissertatsiyalarida, shuningdek, bir qator nomzodlik va falsafa doktori (PhD) tadqiqotlarida (Isayev, 1976; Hakimov, 1994; Usmonova, 1998; Iskandarova, 1999; Bozorboyev, 2000; Abdullayev, 2006; Almatova, 2008; Rashidova, 2018) har tomonlama ishlab chiqilgan.

Folklor asarlari, xususan, xalq dostonlari matnidagi frazeologizmlarning o‘ziga xos xususiyatlari T.Mirzayev, J.Eshonqul va S.Fidokor tomonidan tuzilgan “Alpomish” dostonining izohli lug‘atida (2007), shuningdek, D.O‘rinboyeva (2004) hamda B.Yo‘ldoshev va D.O‘rinboyeva hammuallifligidagi maxsus izohli va chastotali frazeologik lug‘atlarda (2008) atroflicha yoritib berilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotda dostonlar tilidagi somatik frazeologizmlarning funksional-semantik va lingvokulturologik xususiyatlarini aniqlash maqsadida tavsifiy, qiyosiy va kontekstual tahlil metodlaridan foydalanildi. Doston matnlaridan ajratib olingan birliklar lingvistik kuzatuv asosida o‘rganilib, ularning semantik tuzilishi, obrazlilik hamda kontekstdagi pragmatik vazifalari tahlil qilindi. Lisoniy va ekstralingvistik omillar lingvokulturologik yondashuv asosida tadqiq etilib, natijalar nazariy manbalar bilan qiyoslangan holda umumlashtirildi.

**Tahlil va natijalar.** Tilshunoslikda inson tana a‘zolari nomlari asosida shakllangan barqaror birikmalarga nisbatan *somatik frazemalar* yoki *somatik frazeologik birliklar* terminlari qo‘llaniladi. Inson tana a‘zolari nomini ifodalovchi birliklarni anglatuvchi



"somatizm" termini ilk bor F.Vakk tomonidan muomalaga kiritilgan bo'lib, tadqiqotchi ularni frazeologiyaning eng qadimgi va muhim qatlami sifatida baholaydi [2: 23]. Rus tilshunosligida esa "somatik frazeologizm" atamasi birinchi marta E.M.Mordkovich tomonidan ushbu birliklarning semantik-struktura tahliliga bag'ishlangan ishlarida qo'llanilgan [6: 244-245].

Zamonaviy lingvistik luygatlarda somatik kod tushunchasiga inson tanasi a'zolari orqali insoniy tushunchalar va munosabatlarni ifodalovchi til birliklari majmuasi sifatida ta'rif beriladi [4: 521].

Somatik frazeologizmlar tarkibida kamida bitta tana a'zosi nomi ishtirok etadi. Shu bois ularning semantik asosida inson shaxsi, xatti-harakati, fe'l-atvori va ruhiy kechinmalari mujassam bo'lib, bu holat mazkur birliklarning antropotsentrik tabiatini belgilaydi. Ilmiy adabiyotlarda inson xatti-harakatlari va ruhiy holatini ifodalovchi somatik frazeologizmlarning semantik, pragmatik va emotsional-ekspressiv imkoniyatlari alohida tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilgan [5: 68-71; 1: 12-17].

"Go'ro'g'li" turkum dostonlari matnidagi somatik frazeologizmlar xalqning ruhiy kechinmalari, axloqiy-estetik qarashlari va obrazli tafakkurini aks ettiruvchi muhim lingvokulturologik vositadir. Ushbu epik asarlarda frazeologizmlar qahramonlar ruhiyatini yoritish, syujet dinamikasini ta'minlash hamda nutqning ta'sirchanligini oshirishda o'ziga xos uslubiy vazifa bajaradi.

Tadqiqotda asosiy manba sifatida professor S.Ro'zimboyev tomonidan nashr etilgan "Go'ro'g'li" dostonlar to'plamidan (2011) foydalanildi. Undan ajratib olingan somatik birliklarning semantik talqini va ilmiy izohi jarayonida Sh.Rahmatullayev, N.Mahmudov va boshqalar hammuallifligidagi "O'zbek tili frazeologik lug'ati"ga (2022) tayanildi. Ishda dostonlardagi "bosh" komponentli frazeologik birliklar saralanib, ularning lingvopoetik va badiiy-uslubiy xususiyatlari tahlil qilinadi.

Doston matnida "*bosh egmoq*" iborasi pushaymonlik, bo'ysunish va kechirim so'rash sematikasini ifodalaydi: "*Bularning bosh egib tavba qilishlari Og'a Yunus parining ham rahmini keltirdi*" (G:289-b.). Ushbu birlik lug'atda "itoatkor bo'lmoq" ma'nosida qayd etilgan bo'lsa-da (O'TFL, 2022: 94), doston kontekstida qahramonlarning aybini e'tirof etib, rahm-shafqat kutishga yo'naltirilgan pragmatik ruhiy holatini aks ettirgan.

"*Bosh urmoq*" iborasi esa matnda xatarli va murakkab ishga tavakkal qilish ma'nosida keladi: "*O'g'lim, bugun bir savdoga bosh urding, Borg'il Hasan, bir Ollog'a topshirdim*" (G:348-b.). Garchi lug'atlarda mazkur birlik "najot izlab, panoh istab kelmoq" deb izohlansa-da (O'TFL, 2022: 97), doston mifopoetik tasavvurida u sinovli ishga jur'at etish va uning oqibatlarini qabul qilishga tayyorlik ma'nosini ifodalaydi.



Dostondagi o'ziga xos semantik transformatsiya *"bosh ustiga"* iborasi tahlilida yaqqol ko'rinadi: *"Bemahalda yursang sayoq, Balo kelar bosh ustina"* (G:283-b.). Me'yoriy tilda bu ibora "mamnuniyat bilan qabul qilish" ma'nosini anglatganda (O'TFL, 2022: 97), doston kontekstida "balo" leksemasi bilan semantik aloqaga kirishib, falokat yoki musibatning shaxs boshiga muqarrar ravishda tushishi, salbiy oqibatning bevosita qaratilganligini ifodalashga xizmat qilgan.

*"Boshi aylanmoq"* iborasi dostonda kutilmagan xabar yoki hodisadan esankirash sematikasini ifodalaydi: *"...bu so'zlarni eshitib, Go'ro'g'lining boshi aylanib ketdi"* (G:164-b.). Me'yoriy tilda ushbu birlik "behud bo'lmoq; muvozanatini yo'qotmoq" mazmuniga ega bo'lsa-da (O'TFL, 2022: 98), doston kontekstida qahramonning kuchli hayajon va kutilmagan axborot ta'sirida ruhiy muvozanatining buzilishini aks ettirgan.

Og'ir vaziyat va chorasizlik holati doston matnida *"boshi qotmoq"* iborasi orqali emotsional bo'yoqdorlik kasb etadi: *"Tallixon der, qotdi boshim, Ko'zdan oqar qonli yoshim"* (G:364-b.). Lug'atda "uzoq o'ylab ham aniq bir fikrga kela olmaslik" deb izohlangan ushbu birlik (O'TFL, 2022: 100), doston matnida shunchaki o'ylash emas, balki ichki iztirob va yechimsiz kulfat qarshisidagi chorasizlik psixologik holatini ifodalashga xizmat qiladi.

Doston matnida *"boshiga (bir) balo bo'lmoq"* frazeologizmi faol dinamik xarakterga ega bo'lib, turli struktur-semantik variantlarda qo'llangan: *"Boshingga bir balo bo'ldi, Go'ro'g'li"* (G:52-b.), *"...seni tuzingni yeb, boshingga balo keltirdik"* (G:23-b.), *"...g'ofil bo'lib, boshga balo orttirma!"* (G:371-b.). Lug'atda ushbu birlik "qutulish qiyin bo'lgan ortiqcha tashvish, daxmaza bo'lmoq" ma'nosida berilgan (O'TFL, 2022: 103). Biroq epik matn kontekstida uning variantlari qahramon hayotidagi fojiaiy sinovlar va kutilmagan musibatni ifodalaydi. Xususan: *"boshingga balo keltirdik"* varianti boshqa shaxsga nisbatan kulfat keltirish va sababchi bo'lish semasini; *"boshga balo orttirma"* varianti esa g'aflat va ehtiyotsizlik oqibatida keladigan falokatdan ogohlantirish pragmatikasini aktuallashtirgan.

Jang manzaralari va harbiy to'qnashuvlar tasvirida *"boshi ketmoq"* iborasi o'lim xavfi va fojiaiy yo'qotish sematikasini kuchaytirishga xizmat qiladi: *"Savashmak ko'p yomon bo'lar, Bosh ketar, bag'ring qon bo'lar"* (G:214-b.). Lug'atda ushbu birlik "qatl qilinmoq, o'lmoq" deb qayd etilgan bo'lsa ham (O'TFL, 2022: 109), epik kontekstda shunchaki jismoniy o'limni emas, balki qonli urush ortidan keladigan muqarrar fojia va chuqur ijtimoiy qayg'u motivini ifodalaydi.

Dostondagi o'ziga xos somatik harakat motivlaridan biri *"oyog'iga bosh urmoq (qo'ymoq)"* iborasida namoyon bo'ladi: *"Bir vaqt dag'-dag' qiltirab Mirzo Sulton kelib, Go'ro'g'lining oyog'iga bosh qo'ydi"* (G:102-b.). Garchi leksikografik manbalarda mazkur birikma "xokisor bo'lmoq, xokisorlik qilmoq" ma'nosida berilgan bo'lsa-da



(O'TFL, 2022: 365), doston badiiy tizimida u mag'lub qahramonning qo'rquv va iztirob ostida g'olibga mutlaq bo'ysunishi hamda afv ilinjidagi pragmatik holatini ifodalaydi.

Qahramonning ijtimoiy mavqeyi va ruhiy ustunligi *“boshini (baland) ko'tarib (yurmoq)”* iborasi orqali kinetik tarzda (harakat orqali) tasvirlanadi: *“Boshini baland ko'tarib, ot ustida gerdayib o'tirib, qo'rqan oldin musht ko'tarar deganday balanddan kelib...”* (G:228-b.). Lug'atda *“o'zini halol, pokiza bilib, kishilar orasida xijolat tortmay yashamoq”* ma'nosida keluvchi ushbu birlik (O'TFL, 2022: 95), keltirilgan misolda doston qahramonining o'z kuchi va nufuziga ishonchini, gerdayish va ustunlikni namoyon etuvchi mag'rurona xatti-harakatini ifodalagan. Dostondagi *“bosh ko'tarmoq”* iborasining semantik tabiati ham o'ziga xosdir: *“Kel, ketaylik ko'tar bundin boshingni, Mening bu baxtinga qaro orttirma!”* (G:370-b.). Me'yoriy tilda mazkur birlikma *“qilib turgan ishini to'xtatmoq”* ma'nosini anglatadi (O'TFL, 2022: 95), badiiy kontekstda u qahramonning ruhiy iztirob va tushkunlik holatidan chiqishi, o'zini qayta tiklab, bardamlikka qaytishi ma'nosida aktuallashtirilgan. *“Boshiga solmoq”* iborasi doston nutqida taqdir kulfatlari va hayotiy sinovlarni ifodalovchi fatalistik (taqdirga bog'liq) ohangga ega: *“Haq boshga solmasin g'amni, Iqboli bo'lsin odamni”* (G:279-b.). Leksikografik manbalarda u *“kimningdir hayotida boshidan kechirishiga olib kelmoq”* deb izohlansa-da (O'TFL, 2022: 104), doston kontekstida inson irodasidan tashqaridagi ilohiy sinov va g'am-tashvishlarni ifodalab, matnning emotsional-baholovchi ta'sirchanligini oshiradi.

Doston poetikasida og'ir kulfat va fojivaziyatlar dinamikasi *“boshiga tushmoq”* iborasi orqali ko'rsatiladi: *“G'o'ch yigit boshiga qiyin ish tushsa, Suyanmakka bir g'o'ch qardosh kerakdur”* (G:224-b.). Lug'atda *“kutilmagan tarzda sodir bo'lmoq”* (O'TFL, 2022: 105) ma'nosida berilgan ushbu birlik, epik matnda qahramon zimmasidagi kutilmagan musibat, ijtimoiy-maishiy muammolar va ularni bartaraf etishda ko'makka bo'lgan ehtiyoj motivini aktuallashtiradi. Dostonlarning diniy-mifologik qatlamida o'ziga xos o'rin tutuvchi *“boshi qurbon (bo'lmoq)”* iborasi tasavvufiy-mistik ma'noga ega: *“Jig'oli der, chekdim afg'on, Pir yo'lina boshim qurbon”* (G:10-b.). Tarixiy-lingvistik manbalarda *“jonini fido qilishga tayyor turmoq”* deb qayd etilgan mazkur birlik (O'TFL, 2022: 427), ushbu poetik parchada shunchaki fidoyilikni emas, balki murshidga (pirga) nisbatan bo'lgan cheksiz e'tiqod va mutlaq sadoqat munosabatini ifodalaydi.

Estetik hayrat va hissiy muvozanatning buzilishi dostonda *“hushi boshidan uchmoq”* iborasi orqali tasvirlanadi: *“Qopini ochib xonada yotgan Gulruksor pariga ko'zi tushib, hushi boshidan uchdi”* (G:115-b.). Lug'atda *“esankiramoq”* deb berilgan ushbu ibora (O'TFL, 2022: 191), mazkur nutqiy vaziyatda qahramonning g'ayritabiiy go'zallik qarshisida maftun bo'lishi, lol qolishi va ruhiy-hissiy holatini vaqtincha yo'qotishini psixologik jihatdan aniq aks ettirgan. Maqsad yo'lidagi oliy fidoyilik va tavakkalchilik ruhi *“boshdan kechmoq”* iborasining parallel variantlarida yaqqol ko'rinadi:



“Go‘ro‘g‘libek damba-damdi, Moldan, boshdan kechgan yursin!” (G:325-b.), “Bu maydonda ajal mayin icharsiz, Kerak bo‘lsa moldan-boshdan kecharsiz” (G:369-b.). Lug‘atda “o‘limiga rozi bo‘lmoq” ma‘nosida qayd etilgan ushbu birlik (O‘TFL, 2022: 103), doston kontekstida “moldan-boshdan kechmoq” shaklida qo‘llanib, qahramonning g‘oya va maqsad yo‘lida nafaqat mol-mulk, balki o‘z hayotidan ham voz kechishga tayyor bo‘lgan yuksak mardlik xarakterini ochib bergan.

**Xulosa va takliflar.** “Go‘ro‘g‘li” turkum dostonlari matnida “bosh” komponentli frazeologizmlar o‘zbek xalqining mentaliteti, etnomadaniy qarashlari va ruhiy kechinmalarini aks ettiruvchi lingvokulturologik kod hisoblanadi. Mazkur birliklar qahramonlarning ichki holatini yoritish, syujet dinamikasini kuchaytirish hamda nutqning emotsional-ekspressivligini oshirishda muhim uslubiy vazifa bajaradi. Leksikografik manbalardagi me‘yoriy ma‘nolar epik matnda o‘ziga xos pragmatik va kontekstual transformatsiyaga uchrashi aniqlandi.

Kelgusida ushbu dostonlar tilidagi somatik frazeologizmlarni korpus asosida raqamlashtirish, ularning maxsus izohli lug‘atini tuzish hamda zamonaviy o‘zbek tili bilan diaxron va kognitiv nuqtayi nazardan qiyosiy tadqiq etish frazeologiya nazariyasini yangi materiallar bilan boyitishga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Багаутдинова Г. Механизм создания экспрессивности фразеологических единиц, отражающих психическую деятельность человека // Экспрессивность текста и перевод. – Казань, 1991. – С. 12–17.
2. Вакк Ф. О соматической фразеологии в современном эстонском лите-ратурном языке: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Таллин, 1964. – 23 с.
3. Гўрўғли. Масъул муҳаррир: профессор С.Р.Рўзимбоев. – Урганч: “Хоразм” нашриёти, 2011. – 422 б.
4. Do‘smatov H., Qahramonova Sh. Tilshunoslik terminlarining o‘zbekcha–ruscha–inglizcha izohli lug‘ati. 2-jild. – Farg‘ona: GlobeEdit, 2024. – 697 b.
5. Егорова Т. И. Фразеологизмы русского языка со значением качественной оценки действия и манеры поведения человека // Вестник ОмГУ. – 1988. – Вып. 2. – С. 68–71.
6. Мордкович Э. М. Семантико-тематические группы соматических фразеологизмов // Актуальные проблемы фразеологии. – Новосибирск, 1971. – С. 244–245.
7. Пинхасов Я. Д. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Лексикология ва фразеология. – Тошкент: Ўқитувчи, 1969.
8. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили фразеологиясининг баъзи масалалари. – Тошкент: Фан, 1966. – 45 б.
9. Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O‘razova I., Rixsiyeva K. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – 636 b.
10. Теля В. Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа “Языки русской культуры”, 1996. – 222 с.
11. Yo‘ldoshev B. Frazеologik uslubiyot asoslari. – Samarqand, 1998. – 84 b.